

Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Shomuil, Hudoning hizmatkori



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustratsiya qilingan: Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: Lyn Doerksen

60 ta hikoyadan 17-si

www.M1914.org

Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada


Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek

Hanna juda yahshi ayol bo'lib, Elqana ismli odamning hotini edi. Ularning ikkovi ham hudojo'y bo'lib, odamlarga yahshilik qilib yurishardi. Lekin

Hannaning hayotida bir narsa yetishmas edi. Hanna befarzand edi. U Xudodan farzand so'rab duo qilar va farzandli bo'lishni juda istardi.



1

Hanna har yili Sarvari Olamga sajda qilib, qurbonlik keltirar edi. Bir kuni u: "Agar menga o'g'il ato etsang, o'sha o'g'limni Sening xizmatingga berardim," - deb Xudovandga va'da berdi.

2



Ruhoniy Elah Hannaning ibodatiga qarab turar edi. Hanna ichida gapirar, ovozi eshitilmas, faqat lablari qimirlardi. Shuning uchun Ellah Hannani mast bo'lsa kerak deb o'yladi va uni koyidi.


3




Ammo Hannah Ellahga: "Yo'q men sharob ichmaganman, faqat yuragimdagini Egamga to'kib solyapman," - dedi. Shunda Ellah: "Eson-omon bor. Isroil halqining Xudosi tilagingni bajo keltirsin," - dedi. Shunda Hanna umid bilan uyiga qaytdi.

4

So'ng tez orada Hannaning yuragi quvonchga to'ldi. Xudovand Hannaga marhamat qildi. Hanna homilador bo'lib, o'g'il tug'di va uni Egamizdan tilab oldim deb, ismini Shomuil qo'ydi. Hanna Xudoga bergan va'dasini unutmadimikan?



5



Hanna qurbongohga ancha vaqt bormadi. Nahotki u Xudoga bergan vadasini buzdi? Albatta yo'q! U Shomuil katta bo'lishini kutardi. Shomuil katta bo'lgandan keyin Hanna uni Xudoga xizmat qilish uchun ruhoniy Elahning yoniga olib bordi.

6



Xudovand Hannaga ko'p marhamat ko'rsatdi. Shomuidan keyin, Xudovand unga yana 3 o'g'il va 3 qiz berdi. Hanna har yilgi qurbonlikni ato etish uchun Xudoning huzuriga kelib, o'zi tikkan kiyimni o'g'liga olib kelardi.

7



Shomuil ruhoniy Elah huzurida qolib, Hudoga xizmat qilardi. Ellahning o'g'illari Ho'fnah va Finhaz ham otalari bilan birga xizmat qilishar edi.


8



Lekin ular yaramas yigitlar bo'lib, Egamizni hurmat qilmas va ruhoniyluk burchlarini mensimas edilar. Ular hatto otasi ham quloq solmas edi. Ruhoniy Ellah o'g'illarini ruhoniyluk


vazifasidan bo'shatishi kerak edi, ammo u bunday qilmadi.

9




Bir kuni kechasi Xudo Shomuilni chaqirib qoldi. Shomuil: "Labbay hazratim," - deb, Ellahning oldiga yugurib keldi. Bu hodisa 3 marta sodir bo'ldi, shunda Ellah bildiki, o'spirinni Xudovand chaqirayotgan ekan.

10



Shunda Ellah Shomuilga dedi: "Agar o'sha ovoz seni yana chaqirsa, gapiraver Egam, xizmatching eshitadi, degin". Xudovand o'sha yerda Shomuilga yana zohir bo'lib, unga muhim habarni berdi.

11



Ertalab Ruhoniy Ellah Shomuilni chaqirib: "Egamiz senga nimalar dedi?" - deb so'radi. Shomuil Ellahdan hech narsani yashirmay aytib berdi. Bu juda qo'rqinchli habar edi. Chunki Xudovand uning o'qillari Ho'fnah va Fihnazni o'ldirishga qaror qilgandi.

12

Xudoning aytgan so'zlari bajo bo'ldi. Shundan so'ng Falastinliklar qattiq hujum qilib, Isroil lashkarlarini mag'lub etdi. Dushmanlar Xudoning Ahd Sandig'I ham qo'lga kiritishdi.

Ellahning ikkala o'g'li - Ho'fnah bilan Fihnaz esa halok bo'ldi. Ellah bu xabarni eshitgach, kursidan orqasi bilan yiqildi, bo'yni sinib, o'sha zahoti jon berdi.




13

Falastinliklar Xudoning Ahd Sandig'ini qo'lga kiritgandan keyin, bu ularga ko'p balo-qazolar keltirdi. Falastinliklar uni o'zlari sajda qiladigan, Do'g'on nomli butlari turadigan butxonaga keltirib qo'yishdi.




14

Erta sahar turib qarashsaki, Do'g'on yuzi bilan yerga ag'darilib yotgan ekan. Shunda uni ko'tarib, joyiga turg'izib qo'yishdi. Ertasiga yana turib qarashsaki, Do'g'on yerga ag'darilib yotgan ekan va bu safar uning boshi, ikki qo'li sinib, ostonada yotgan ekan.




15

Falastinliklar kasallik bilan o'limga muhtalo bo'lishdi. Ular arava bilan sigirni qo'shib hozirlab, ichiga Ahd Sandig'ini solib, qo'yib yuborishdi.




16

"Agar sigirlar bizning yurtimizdan o'tib, Isroil yeriga ketsa, demak boshimizga bunday katta kulfatni solgan Isroil xalqining Xudosi ekanligini shundan bilib olamiz," - deyishdi. Sigirlar Isroil yeriga o'tib, to'htab qolishdi.



17

Shomuil jamiiki Isroil xalqiga: "Agar chin dildan Egamiz Xudoga qaysangiz, Egamiz sizlarni Falastinliklar qo'lidan qutqaradi," - dedi. Isroil xalqi unga ishonib, yana Xudoga hizmat qila boshlashdi va Xudovand ularni Falastinliklar qo'lidan qutqardi.



18

Shomuil, Hudoning hizmatkori

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

1 Samuel 1-7

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo lamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!